

YURIDIK NUTQNING TARKIBIY QISMLARI

Dildora RAXMONOVA,

TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada yuridik nutq yaratish tamoyillari, yuridik nutqning tarkibiy qismlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ichki nutq, tashqi nutq, nutqning og'zaki va yozma shakli, nutqning tarkibiy qismlari, elitar (to'liq xususiyatli), o'rta adabiy, adabiy-jargonlashgan va betakalluf so'zlashuv notiqlik madaniyati turlari.

Yuristning nutqi boshqa har qanday ommaviy nutq singari uch qismga bo'linadi: kirish, asosiy qism va xulosa. Yurist nutqining e'tiborni jalb eta oladigan darajada bo'lishi ko'p jihatdan uning qanday boshlanishiga, ma'ruzachining auditoriya bilan aloqa o'rnatishiga, deylik, sudyalarning yoki sud maslahatchilarining e'tiborini tortishga va ularni bu nutqni idrok etishga psixologik jihatdan tayyorlashga bog'liq. *Kirish qismi* nutqning asosiy maqsadiga qarab belgilanadi va u nutqning mazmunini ochib berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi hamda hal qilinishi kerak bo'lgan muammoni o'z ichiga oladi.

Notiq uchun eng qiyini – to'g'ri, kerakli **boshlanish** nuqtasini topishdir.

Notiq qanday nutqni tanlashidan qat'i nazar, unda mavzuning sabablari va dolzarbligi to'g'risida nimalar deyilishi kerakligini yodda tutishi lozim; u asosiy qism bilan bog'liq bo'lishi, nutqning mazmunini ochish uchun boshlang'ich nuqta vazifasini bajarishi kerak; kirish qisqa va uslubiy jihatdan asosiy qismga uyg'un bo'lishi shart.

Agar, masalan, sud jarayonida advokatning nutqi sudyaning va tinglovchilarning diqqatini o'ziga jalb etgan bo'lsa, u butun nutq davomida buni saqlab qolishi lozim. Shuning uchun nutq mantiqan yaxshi tashkil etilgan bo'lishi shart, ma'ruzachining fikri eskidan yangisiga, ma'lumdan noma'lumga, nisbatan kuchsiz dalillardan kuchliroqlariga o'tib borishi kerak. Diqqatni o'zida saqlab

turishda ziddiyatli vaziyatning mavjudligi, qarshi qo‘yiladigan dalillarni taqdim etish yaxshi yordam beradi.

Sud nutqining **asosiy qismi** uning alohida kichik mavzularini va ularning mazmunan aloqasi va foydalanilgan sintaktik vositalarni ochib beruvchi mantiqiy birliklarning jamlanmasini ifodalaydi. Odatda nutqning asosiy qismi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ishning haqiqiy holatlari to‘g‘risida bayonnoma; ish yuzasidan to‘plangan dalillarning tahlili; jinoyatning toifasi bo‘yicha asoslar; sudlanuvchining tavsifi; jinoyat sodir etilishining sabablari va jazo chorasi haqidagi fikrlar. Har bir ommaviy nutqda bo‘lgani kabi sud nutqining asosiy qismi ham dalillar va fikrlarni bayon qilishdan tortib ularni rad etish yoki tasdiqlashga qadar mantiqiy mulohazalarga asoslanadi.

Sudda notiq nutqining **xulosasi** odatda qisqa bo‘ladi. Bunda xulosa qismi nutq davomida aytilganlarning barchasini umumlashtirishi kerak. Masalan: «Sudlanuvchiga nisbatan belgilangan bunday sud hukmi nafaqat sudlanuvchini jazolash, balki jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishidan ham yetarlicha dalolat beradi». Xulosaning juda qisqa bo‘lishi esa nutqning muvaffaqiyatsizligiga sabab bo‘ladi, masalan: «Aytmoqchi bo‘lganlarimning hammasi shu» yoki «Men hammasini aytib bo‘ldim». U nutqning sifatini va tinglovchilarga ta’sirini kamaytirishi mumkin.

Sud notiqlarining ayblov nutqlari ko‘pincha adolatli hukm chiqarish bo‘yicha sud maslahatchilariga murojaat qilish bilan boshlanadi va tugatiladi.

Notiq-yurist nutqining muvaffaqiyati uning o‘zini o‘zi takomillashtirishiga, so‘zlarni mohirona qo‘llashni o‘rganishiga bog‘liq, chunki nutq madaniyati uning umumiy va kasbiy madaniyatining ajralmas qismidir.

Nutq madaniyati va huquqiy amaliyot haqidagi ilmiy ishlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, nutq madaniyati bilimning ko‘nikmaga aylanishidan boshlanadi. Kundalik muloqotda o‘z-o‘zidan, beixtiyor gapirishga odatlanib qolgan Yurist sud jarayonida yoki hamkasblar o‘rtasidagi muloqatda ham odatdagi xatolarini takrorlashi mumkin. Shuning uchun yurist doim nutq madaniyatini oshirish ustida ishlashi, bilimlarini nutq qobiliyati bilan bog‘lashga intilishi kerak.

Sud nutqining kommunikativ sifatlari notiq nutqining haqiqatan ham ishonchli chiqishiga yordam beradi va bunday sifatlarga quyidagilar kiradi: ochiqlik (tushunarlik, soddalik), aniqlik, ishoniruvchanlik, mantiqiylik, hissiyotlilik va ta'sirchanlik. Sud nutqining yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlari yurist nutqining boshqa turlariga ham taalluqlidir.

Yurist nutqining eng muhim xususiyati axloqiy tarkib hisoblanadi. Buni sud nutqi misolida ko'rib chiqish mumkin, chunki yurist nutqining ushbu turida axloqiy me'yorlar va tamoyillar eng aniq va izchil ifodalangan bo'ladi. Sud notig'iga va sud nutqiga qo'yiladigan axloqiy talablar sudga, sud ishidagi raqibga, jabrlanuvchiga, guvohlarga va sudlanuvchiga hurmat ko'rsatish bilan bog'liq. Jumladan, sudyaning axloqiy burchi avvalambor inson qadr-qimmatini hurmat qilish va insonga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishdir. Albatta, jamiyat nutqini ifodalashning muayyan shakllarini yaratadi va shu tilda so'zlovchilardan nutqdan to'g'ri foydalanish qoidalari majmuini ifodalovchi og'zaki muomalada odob-axloq qoidalariga rioya etishni talab qiladi. Shuning uchun sud notig'i har doim o'zi so'zlaydigan nutq uchun eng o'rinli ibora va jummalarni tanlashi kerak.

Notiqlik borasida muvaffaqiyatga erishish uchun taniqli yuristlarning nutqlarini o'rganish juda muhim. Ularning nutqida nutqning butun mazmuni, uning ta'sir qiluvchi xususiyatlari til vositalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ona tilidagi so'zlarni yaxshilab o'ylab va hurmat bilan ishlatishni o'rganish kerak, shu orqali sud muzokaralarining tarbiyaviy ahamiyatini oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. – Toshkent, 2007.
2. Raxmonova D. Yuristning yozma va og'zaki muloqot ko'nikmasi. – Toshkent, 2021.
3. Тарасов А.А., Шарипова А.Р. Риторика для юристов. – М., Юстиция, 2017.
4. Xojimatova M. Nutq san'ati. – T., Yangi asr avlodi, 2011.
5. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. – T., Yangi asr avlodi, 2010.